



**NAMANGAN VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**NAMANGAN
VILOYATIDA
QURILISH ISHLARI**

**2024- YIL
YANVAR-APREL**

2024-yilning yanvar-aprel oyida, Namangan viloyatida jami **2113,2** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2023- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **111,1 %** ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da


Qurilish ishlari hajmi: Yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.




2024- yil 1-may holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar, *birlikda*



Yillar kesimida soni



Hududlar kesimida



836

Bino va inshootlar qurilishi

246

Fuqarolik obyektlarini qurilishi

501

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 2023- yil bilan solishtirganda 89,0 foizni tashkil etgan.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 52,8 foiz ulushi;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 15,5 foiz ulushi;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 31,7 foiz ulushni tashkil etdi.



Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, *birlikda*

	Holatiga :		o'tgan yiliga nisbatan, % da
	01.05.2023- y.	01.05.2024- y.	
Namangan viloyati	1779	1583	89,0

tumanlar:

Mingbuloq	56	46	82,1
Kosonsoy	176	146	83,0
Namangan	72	63	87,5
Norin	104	96	92,3
Pop	115	93	80,9
To'raqo'rg'on	75	69	92,0
Uychi	190	158	83,2
Uchqo'rg'on	139	111	79,9
Chortoq	119	107	89,9
Chust	129	140	108,5
Yangiqo'rg'on	92	80	87,0
Namangan shahar	512	474	92,6
shundan			
Davlatobod	148	135	91,2
Yangi Namangan	123	130	105,7



2024- yil 1- may holatiga ko'ra Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, % da




Namangan sh.(29,9)



Uychi (10,0)



Kosonsoy (9,2)



- Namangan shahar
- Minbuloq
- Kosonsoy
- Namangan
- Norin
- Pop
- To'raqo'rg'on
- Uychi
- Uchqo'rg'on
- Chortoq
- Chust
- Yangiqo'rg'on



Qurilish ishlari 2024- yil yanvar-aprel uchun


	Qurilish ishlari, mln. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Namangan viloyati	2113249,6	132326,0	1387930,7	592992,9
<i>tumanlar:</i>				
Mingbuloq	69387,4	6499,1	44876,2	18012,1
Kosonsoy	160272,0	18221,2	63603,2	78447,6
Namangan	141788,7	18043,3	78511,4	45234,0
Norin	101912,6	4518,6	40959,0	56435,0
Pop	134879,4	11611,1	96457,1	26811,2
To'raqo'rg'on	118401,3	2650,0	84247,5	31503,8
Uychi	181166,9	2540,9	139780,2	38845,8
Uchqo'rg'on	144529,7	22709,0	71029,6	50791,1
Chortoq	192289,4	12906,1	119719,9	59663,4
Chust	99623,2	2487,6	43300,8	53834,8
Yangiqo'rg'on	139153,1	4381,4	77952,2	56819,5
Namangan sh.	629845,9	25757,7	527493,6	76594,6
<i>shundan</i>				
Davlatobod	215269,5	0,0	207046,7	8222,8
Yangi Namangan	149704,6	0,0	139597,0	10107,6

2024- yilning yanvar-aprel oyida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 132326,0 mln. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2023- yilga nisbatan 121,1 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 6,3 % ni tashkil etdi.


Qurilish ishlari 2024- yil yanvar-aprel uchun



Pudratchi – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish-montaj, qayta ta‘mirlash, kapital ta‘mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug‘ullanadi.



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



MA'LUMOT UCHUN: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Uchqo'rg'on tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 15,7 %) ga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2024- yilning yanvar-aprel oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 65,7% to'g'ri kelib. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan 108,4 % ni tashkil etgan holda 1387930,7 mln. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, % da



65,7

2024- yil
yanvar-aprel

68,1

2023- yil
yanvar-aprel




MA'LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Namangan shahri (527493,6 mln. so'm hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 83,7 %), Uychi tumani (139780,2 mln. so'm yoki 77,2 %), Chortoq tumani (119719,8 mln. so'm yoki 62,3 %)ga to'g'ri keldi.



Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 28,0 % ni tashkil etdi yoki 592992,9 mln. so'm miqdorida qayd etildi. 2023- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan 116,0 % ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 99816,0 mln. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 2013433,6 mln. so'm qurilish ishlari bajarildi.



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,
rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta quollantirish ishlari ulushi
2024- yil yanvar-aprel oylarida**



Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **77,8 %** yoki **1643079,2** mln. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

8,0 %

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan **132326,0** mln. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **8,0 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **922872,5** mln. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **56,2 %** ni tashkil etdi

56,2 %

35,8 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **587880,7** mln. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **35,8 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida qurilish ishlari 2024- yil yanvar-aprel oylarida


	Qurilish ishlari, mln. so'm	o'sish sur'ati, % da	Shu jumladan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish
Namangan viloyati	2113249,6	111,1	1643079,2
tumanlar:			
Mingbuloq	69387,4	115,1	52578,5
Kosonsoy	160272	98,5	126517,1
Namangan	141788,7	109,7	106800,1
Norin	101912,6	105,6	77224,7
Pop	134879,4	110,3	110086,3
To'raqo'rg'on	118401,3	114,9	96941,7
Uychi	181166,9	98,3	136375,6
Uchqo'rg'on	144529,7	117,1	110086,3
Chortoq	192289,4	107,8	144591,0
Chust	99623,2	110,0	83797,0
Yangiqo'rg'on	139153,1	112,1	111729,4
Namangan shahri shundan	629845,9	119,5	486351,5
Davlatobod	215269,5	138,5	156092,5
Yangi Namangan	149704,6	105,6	128160,2

**Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda*



Ma'lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Bino va inshootlar qurilishi



ulushi % da



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 3,3 % ni tashkil etgan. Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 57,2 % ni tashkil etdi. Norasmiy sektorning ulushi esa 39,5 % ni tashkil etdi.


Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 40,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 59,6 % hamda norasmiy sektorning ulushi 0,0 % ni tashkil etdi.

ulushi % da



2023- yil
yanvar-aprel



2024- yil
yanvar-aprel

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari hamda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 0,0 % ni tashkil etdi. Qolgan 100,0 % ni kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etgan.

ulushi % da

1,3

2023- yil
yanvar-aprel

2023- yil
yanvar-aprel

98,7

0,0

2024- yil
yanvar-aprel

2024- yil
yanvar-aprel

100,0

Yirik qurilish
tashkilotlari
ulushi

Kichik korxonalar va
mikrofirmalar
ulushi

Hududlar kesimida aholi jon boshiga qurilish ishlari 2024- yil yanvar-aprel



	Aholi jon boshiga qurilish ishlari, ming. so'm	o'sish sur'ati, % da
Namangan viloyati	687,7	108,7
<i>tumanlar:</i>		
Mingbuloq	505,7	112,8
Kosonsoy	701,4	96,2
Namangan	734,3	107,2
Norin	578,7	103,7
Pop	571,3	108,3
To'raqo'rg'on	481,9	112,3
Uychi	777,9	96,2
Uchqo'rg'on	778,3	114,8
Chortoq	893,1	105,5
Chust	348,0	107,7
Yangiqo'rg'on	585,7	109,8
Namangan shahri	901,7	116,4

Hududlar kesimida aholi jon boshiga qurilish ishlari 2024- yil yanvar-aprel



Hududlar kesimida 2024- yil yanvar-aprel oyida aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmi bo'yicha birinchi o'rinni Namangan shahar – 901,7 ming so'm yoki, 2023- yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan 116,4 %, undan keyin mos ravishda Chortoq tumani – 893,1 ming so'm (yoki 105,5 %) tumanlari egalladi.

**Namangan viloyati Investitsiyalar va
qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: **(69) 227-84-85**